

«ТАСДИҚЛАЙМАН»  
Ўзбекистон республикаси АТБ  
«Узсаноаткурилишбанк» Наманган  
митакавий филиали бошлиги



Ш.М.Муминов

2022 й

### БҮЮРТМАЧИ:

Ўзбекистон республикаси АТБ «Узсаноаткурилишбанк» Наманган митакавий  
филиали

Наманган вилоят Наманган шахар АТБ  
«Узсаноаткурилишбанк» Наманган митакавий филиали бино  
ва иншоотларини реконструкция килиш ишлари

ТАНЛОВ ҲУЖЖАТЛАРИ

## **Танлов хужжатларининг мазмуни:**

- I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома**
- II. Техник қисм**
- III. Нархлар қисми**

# **ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА**

Ушбу йўриқнома 2021 йил 22 апрелдаги № 684-сонли Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунига асосан руйхатдан ўтказилган тартиби асосида ишлаб чиқилди

## **1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ**

1. 1 Наманган вилоят Наманган шахар И.Каримов кучасидаги АТБ «Узсаноаткурилишбанк» Наманган минтакавий филиали бино ва иншоотларини реконструкция килиш ишлари

1.2. Техник топшириқ танлов хужжатларининг техник қисмда илова қилинган.

**Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан ташкилот билан шартнома тузилади.**

1.3.Ишларни бажариш муддати шартнома имзоланган кундан бошлаб 10 кун.

## **2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ**

2.1. АТБ «Узсаноаткурилишбанк» Наманган минтакавий филиали, (бундан кейин-“Буюртмачи” деб аталади) -танлов ташкилотчиси хисобланади.

“Буюртмачи” манзили: Узбекистон, Наманган вилояти, Наманган шаҳри, И.Каримов кучаси, 19 уй

2.2. Танлов “Буюртмачи” томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов Ўзбекистон республикаси Наманган шахар АТБ «Узсаноаткурилишбанк» Наманган минтакавий филиали, биносида “Буюртмачи” томонидан тузилган Харид комиссияси томонидан қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

## **3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ**

3.1. Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда маҳсулотни ишлаб чиқарувчи ва хизматлар кўрсатишига ихтисослашган, барча юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуидаги малакавий талаблар қуилади:

шартномалар тузиш юзасидан фуқаролик-муомала ҳуқуқий лаёқат ва ваколатлар;

танлов обьектига ўхшаш обьектларда ишлаш тажрибасининг мавжудлиги;

ўз кучлари билан илгари бажарилган иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар;

танлов обьектида ўз кучлари билан бажариладиган ишларнинг мўлжалланаётган ҳажми;

Низом маблағи миқдори.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлик фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.

3.4. Қўйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди:

қайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тутатиши ёки банкротлик арафасида тургандар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-хуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

3.5. Танлов иштирокчилари – талабгор ташкилотлар танлов предметининг лойиха хужжатлари, хусусан, лойиҳани график қисми (чизмалари) билан танишиб чиқиш ва танлов таклифини тузиш учун буюртмачига (танлов ташкилотчисига) тақдим этилиши ҳақида мурожаат килишга ҳақлидирлар.

## **4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ**

4.1. Иштирокчилар ўз таклифларини электрон кўринишда ([etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz)) порталига электрон танловлар ўтказиш учун жойлаштириши лозим.

4.2. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва хужжатлар, маълумотлар “Буюртмачи” ва “Иштирокчи” ихтиёрига кўра ўзбек ва рус тилида тақдим этилиши мумкин.

4.3. танлов хужжатларида қуйидагилар тақдим этилиши лозим:

- Техник қисм, “Буюртмачи” томонидан қўйилган техник талабларни ва бажариладиган иш ва хизматлар кўрсатилиши керак;

- Нархлар қисми, Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида, хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби ва якуний тўловлар ва бошқа боғлиқ кўрсаткичлар кўрсатилган бўлиши керак.

4.4. Қуйидаги хужжатлар тўлиқ бўлиши талаб этилади:

Техник ва нархлар бўйича қуйидаги таклифлар:

- Техник таклиф, Фирменний бланкада имзоланган, номерланган ва муҳрланган холда;

4.5. Танлов иштирокчиси:

- фақат битта таклиф бериши мумкин;

- тақдим этилаётган хужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тўлиқ жавобгар бўлади;

- таклифлар бериш муддати тугагунга қадар ўз таклифларини қайтариб олиш ёки ўзгаришиш киритиш хуқуқига эга.

## **5. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ**

5.1. Давлат харидлари тўғрисидаги Қонун талабларини бузган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар

5.2. Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонунчиликда белгиланган тартибда ғолиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.

5.3. Танлов иштирокчиси тақдим этилган барча хужжатларни ҳақиқийлиги ва тўғрилига жавобгардир. Ғолиб иштирокчи деб топилгандан сўнг қонунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

## **6. БОШҚА ШАРТЛАР**

6.1. Давлат буюртмачиси танлов хужжатларига ўзгаришилар киритиш тўғрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин қарор қабул қилишга ҳақли. Товарни (ишни, хизматни) ўзгаришишга йўл қўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов хужжатларига ўзгаришилар киритилган санадан эътиборан камида ўн кунга узайтирилиши керак. Шу билан бир вактда, агар эълонда кўрсатилган ахборот ўзгаририлган бўлса, танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонга ўзгаришилар киритилади.

6.2. Танлов иштирокчиси танлов хужжатлари қоидаларини танлов ўтказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига сўров юборишига ҳақли. Сўров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичida давлат буюртмачиси, агар мазкур сўров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган бўлса, ушбу сўровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов хужжатларининг қоидаларига доир тушунтиришилар уларнинг мазмун-моҳиятини ўзгартирмаслиги керак.

6.3. Таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси харид комиссиясининг барча аъзолари томонидан имзоланади ҳамда ундан олинган кўчирма у имзоланган кундан эътиборан махсус ахборот порталида эълон қилинади.

6.4. Танловнинг исталган иштирокчиси таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси эълон қилинганидан сўнг давлат буюртмачисига танлов натижаларига доир тушунтиришиларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишига ҳақли. Давлат буюртмачиси

бундай сўров келиб тушган санадан эътиборан уч иш қуни ичида танлов иштирокчисига тегишили тушунтиришларни тақдим этиши шарт.

6.5 Танлов натижалари бўйича шартнома танлов ҳужжатларида ва ўзи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда кўрсатилган шартлар асосида тузилади

**Танловга тақдим этиладиган хужжатлар руйхати**

1. Коррупция кўринишларга йўл қўймаслик бўйича ариза
2. Танлов иштирокчиси туғрисида умумий маълумот.
3. Давлат руйхатидан утганлиги туғрисида гувохнома, лицензия ва мазкур ишларни бажариш бўйича рухсат берувчи хужжатлар нусхалари.
4. Мавжуд техникалар, маҳсус ихтисослаштирилган асосий воситалар туғрисида маълумот.
5. Мазкур соҳада бажарилган ишлар бўйича камида 3 йиллик иш тажрибаси тўғрисида маълумот.
6. Мутахассисларнинг мазкур соҳадаги иш стажлари тўғрисида маълумот
7. Танлов иштирокчисининг молиявий аҳволи

**Таклифларни техник ва нархлар бўйича баҳолаш.**

Харид комиссияси томонидан берилган эълон юзасидан курсатилган муддатда иштирокчилардан электронний шаклда келиб тушган таклифлар дастлаб техник жихатдан баҳоланади. Комиссия томонидан электронний шаклда келган таклифлар, техник баҳолаш утказилгандан сунг куйидаги критерийларга асосан нархлар буйича баҳоланади.

№	Критерийларноми, мазмуни	Энгюко ри балл	% хисобида
1.	Коррупция кўринишларга йўл қўймаслик бўйича ариза	<b>10</b>	80%
2.	Танлов иштирокчиси тугрисида умумий маълумот	<b>15</b>	
3.	Давлат руйхатидан утганлиги тугрисида гувохнома, лицензия, хизмат курсатиши учун рухсат этувчи хужжатлар нусхалари	<b>17</b>	
4.	Мавжуд техника ва механизмлар, мазкур ишларни бажариш учун ихтисослашган асосий воситалар мавжудлиги тугрисида маълумот.	<b>20</b>	
5.	Охириги Зийил давомида шу соҳада бажарилган ишлар буйича орттирилганиш тажрибаси.	<b>20</b>	
6.	Мутахассисларнинг амалий иш тажрибаси ва уртacha иш стажи	<b>15</b>	
7.	Танлов иштирокчисининг молиявий аҳволи	<b>17</b>	
8.	Ишларни бажариш буйича берилган нархлар таклифи. (система томонидан)		20%



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail: namexpert@umail.uz www.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:04-03-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 33237**

**Obyekt nomi** «Namangan viloyati Namangan shahar I.Karimov ko'chasidagi "O'zsanoatqurilishbank" ATB Namangan mintaqaviy filiali bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish»

**Buyurtmachi** - "O'zsanoatqurilishbank" ATB Namangan mintaqaviy filiali

**Bosh loyihami** - "KELAJAK-S" xususiy korxonasi

**Litsenziya** AL-000800 9.06.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

**Moliyalashtirish manbai** - "O'zsanoatqurilishbank" ATB mablag'lari

**Bosh pudratchi** - Tender asosida

**Qurilish turi** Rekonstruksiya

**Murojaat raqami:** № 32101

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 3.02.2022 yildagi 19-09/38-sonli xati.

1.2. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2022 yilga mo'ljallangan "Manzilli ro'yxati".

1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig'i.

1.4. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 17.11.2020 yildagi 1714-1714401-5659-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.5. "KELAJAK-S" xususiy korxonasi tomonidan 2021 yilda bajarilgan texnik xolatini tekshirish bo'yicha dalolatnomasi.

1.6. "O'ZGASHKLITI" DUK Namangan filiali tomonidan 2020 yilda bajarilgan qurilish maydonining muxandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.7. Loyerha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 14.02.2022 yildagi 88476-sonli shartnoma.

1.8. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqson qaydnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiyl tushuntirish yozuvni.

- Ma'muriy bino (mukammal ta'mirlash). Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv ta'minoti,

oqava suv tizimi, elektr yoritish, kuchsiz tok, qo'riqlash, yong'in signalizatsiya, IP videokuzatuv va texnologik qismlari.

- Yordamchi bino (yangi qurilish). Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv ta'minoti va oqava suv tizimi, elektr yoritish, qo'riqlash va yong'in signalizatsiya qismlari.
- Qorovulkxonan (yangi qurilish). Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv ta'minoti va oqava suv tizimi, elektr yoritish, qo'riqlash va yong'in signalizatsiya qismlari.
- Inkassator mashina uchun boks va ayvon (yangi qurilish). Arxitektura va qurilish, elektr yoritish, qo'riqlash va yong'in signalizatsiya qismlari.
- Kichik me'moriy inshootlar (dizelgenerator uchun ayvon, tashqi ko'rgon devor).
- Bosh reja va tashqi muxandislik tarmoqlari.
- Smeta hujjatlari.

### **3. Loyihalarining qisqacha mazmuni**

#### **3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.**

Rekonstruksiya qilinayotgan bank Namangan shahar I.Karimov ko'chasida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiylar sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa va shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes (qatlam qalinligi 0,8-1,1 metrgacha) va 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 1,8-6,6 metr gacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - II. Yer osti suvlari 8 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relefi - tekis.

#### **3.2. Bosh reja.**

"O'zsanoatqurilishbank" ATB Namangan mintaqaviy filialining mavjud hududida quyidagi bino-inshootlar joylashgan: mavjud bino va inshootlar, mukammal ta'mirlanayotgan ma'muriy bino hamda loyihamayotgan yordamchi bino, inkassator mashina uchun boks va ayvon, qorovulkxonan, 4 o'rinni hojatxona, dizelgenerator uchun ayvon, tashqi ko'rgon devor, kichik me'moriy inshootlar. Yer maydonining chegaralari: shimoldan - I.Karimov ko'chasi bilan, janubdan - ko'p qavatli turar-joy bilan, sharqdan - ichki ko'cha bilan, g'arbdan - teri-tanosil kasalliklar dispanseri bilan. Hudud obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi.

#### **3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.**

##### **1. Ma'muriy bino (mukammal ta'mirlash).**

Ma'muriy bino - 4 qavatli, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-5" o'qlari bo'yicha 4,8mx22,8m, 1÷3 qavat xonalar balandligi - 3,0 m, 4 qavat xonalar balandligi - 4,4m. Texnik xulosaga ko'ra binoning umumiy xolati qoniqarli. Mukammal ta'mirlash jarayonida fasad kismida metall konstruksiyadan karkas qurish va unga fasad elementlari - GP steklopaket, itallogranit plitalar hamda sokol qismida "taun-brown" granit plitalar o'rnatish, asosiy qirish ta'mirlash, mavjud pandusni demontaj qilish va yangi pandus qurish, tambur qurish, 2-3-qavatlar xonalarini qisman ta'mirlash, elektr tarmoqlari tizimini qayta tiklash, qo'riqlash, yong'in signalizatsiya, IP videokuzatuv tizimlari o'rnatish, shuningdek loyiha va nuqson dalolatnomasiga asosan boshqa ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

## 2. Yordamchi bino (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-5" o'qlari bo'yicha 4,8mx22,8m, xonalarining balandligi - 3,0 m.

### Konstruktiv yechimi.

*Poydevor* - yaxlit tasmasimon quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Devorlar* - 75 markali pishiq g'ishtdan, II-toifa g'isht terish usulida.

*Sarbastalar va o'zaklar* - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Tomyopma* - UTR 46.1-95 yig'ma temir-beton plitalar.

*Tom* - yog'och stropila va reykali panjara-to'qima asosida metallocherepitsa qoplama.

*Eshik va derezalar* - plastik profil.

*Vitrajlar* - alyumin profil.

*Pol* – keramik, beton.

## 3. Qorovulxona (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-5" o'qlari bo'yicha 4,8mx22,8m, xonalarining balandligi - 3,0 m.

### Konstruktiv yechimi.

*Poydevor* - yaxlit tasmasimon quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Devorlar* - 75 markali pishiq g'ishtdan, II-toifa g'isht terish usulida.

*Sarbastalar va o'zaklar* - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Tomyopma* - UTR 46.1-95 yig'ma temir-beton plitalar.

*Tom* - yog'och stropila va reykali panjara-to'qima asosida profnastil qoplama.

*Eshik va derezalar* - plastik profil.

*Vitrajlar* - alyumin profil.

*Pol* – laminat.

## 4. Inkassator mashina uchun boks va ayvon (yangi qurilish).

Boks 1 qavatli bo'lib, yerto'lasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 5,6mx9,6m o'lchamdan iborat, xona balandligi - 3,0 m. Ayvon 1 qavatli bo'lib, yerto'lasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 5,6mx5,5m o'lchamdan iborat, xona balandligi - 3,0 m.

### Konstruktiv yechimi.

*Poydevor* - yaxlit tasmasimon va alohida quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Devor* - 75 markali pishiq g'ishtdan, II-toifa g'isht terish usulida.

*Ustunlar* - Ø159 mm.li metall quvurlardan.

*Tomyopma* - metall fermalar.

*Tom* - metall obreshyotka asosida profnastil qoplama.

*Darvozalar* - metall.

*Framugalar* - alyumin profil.

#### 5. 4 o'rinli hojatxona (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-1" va "A-B" o'qlari bo'yicha 2,7mx6,0m, xonalar balandligi - 2,3 m.

*Konstruktiv yechimi.*

*Poydevor* - yaxlit quyma betondan, beton markasi V15 va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V12,5 (pardadevor uchun).

*Devorlar* - 75 markali pishiq g'ishtdan, II-toifa g'isht terish usulida.

*Pardadevor* - pishiq g'ishtdan, 120 mm qalnlikda va alyumin profil.

*Sarbastalar* - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

*Tom* - yog'och stropila va reykali panjara-to'qima asosida metallocherepitsa qoplama.

*Deraza va eshiklar* - profil.

*Pol* - keramik.

#### 6. Tashqi ko'rgon devor (yangi qurilish).

Loyihada umumiy uzunligi 52 metr va balandligi 3,6 metr bo'lgan g'ishtli devor qurilishi ko'zda tutilgan.

#### 7. Dizelgenerator uchun ayvon (yangi qurilish).

Ob'ektga avvaldan ishlab chiqilgan loyihalar bog'langan.

**Ob'ekt ko'rsatkilari:**

Nomi	Qurilish maydoni (m <sup>2</sup> )	Umumiy maydoni (m <sup>2</sup> )	Qurilish xajmi (m <sup>3</sup> )
Ma'muriy bino	632,29	1929,01	9066,76
Yordamchi bino	127,92	94,06	540,0
Qorovulkxona	43,71	32,0	197,56
Dizelgenerator uchun ayvon	14,1	12,0	42,5
Inkassator mashina uchun boks va ayvon	86,53	86,53	285,54
4 o'rinli hojatxona	19,84	12,74	69,44
Jami	<b>924,39</b>	<b>2166,34</b>	<b>10201,8</b>

*Yong'in xavfsizligi.*

Loyihada binoning o'tga chidamlilik darajasi o'tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong'in guruholiga javob berishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Yong'inni rivojlanishini oldini olish uchun yong'in signalizatsiyasi tizimlari loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yunalishida ochiladi.

Hududda 50 m<sup>3</sup> xajmli yong'inga karshi suv xovuzi va yong'in gidranti mavjud.

### **3.4. Rekonstruksiya qilish davomiyligi.**

Rekonstruksiya qilish davomiyligi – 6 oy.

### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

- 4.1. Suv ta'minoti, oqava suv tizimi va elektr ta'minoti – mavjud tarmoqlardan ko'zda tutilgan.
- 4.2. Issiklik ta'minoti – loyihada 2 va 3 qavatlari issiqlik tizimi uchun loyiha topshirig'iga muvofiq elektr issiqlik suv qozoni o'rnatish ko'zda tutilgan.

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- Bosh reja, fasad chizmasi Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va Namangan shahar qurilish bo'limi bilan kelishilgan.
- Namangan viloyat SEO va JS boshqarmasining 5.03.2021 yildagi 7-sonli xulosasi (148-shakl).
- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 16.03.2021 yildagi 01-19/01-196-sonli xulosasi.
- O'zbekiston nogironlar Jamiyat Namangan viloyat bo'limining 4.03.2021 yildagi 41-sonli xulosasi.
- Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik kengashining 18.03.2021 yildagi 11171-sonli xulosasi.
- Interer dizayni "O'zsanoatqurilishbank" ATB boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan.

### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Buyurtmachining arizasiga asosan ekspertiza tomonidan joriy narxlarda qayta hisoblangan smeta hujjatlari ko'rib chiqildi.

6.2. Belgilansinki, qayta ekspertiza o'tkazilishi munosabati bilan 16.04.2021 yilda berilgan №6367 yig'ma ekspert xulosa – bekor qilinadi.

6.3. Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 4916106,125 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 118275,443 ming so'mga kamaytirilib, **4797830,682 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	3542747,247	ming so'm
Asbob-uskunalar:	603745,317	ming so'm
QQS:	621973,885	ming so'm
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	29364,233	ming so'm

6.4. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

### **7. Xulosalar.**

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Namangan shahar I.Karimov

ko'chasidagi "O'zsanoatqurilishbank" ATB Namangan mintaqaviy filiali bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich